“Farg‘onaazot” AJning Termiz tumanida joylashgan omborida sodir bo‘lgan yong‘in yuzasidan “O‘zkimyosanoat” AJ quyidagilarni ma‘lum qiladi

// 09.08.2023
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/fargonaazot-termiz-ombor

“Farg‘onaazot” AJning Termiz tumanida joylashgan omborida sodir bo‘lgan yong‘in yuzasidan “O‘zkimyosanoat” AJ quyidagilarni ma‘lum qiladi:

2023-yilning 9-avgust kuni “Farg‘onaazot” AJning Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan omborida yong‘in kelib chiqqan va bu haqida FVBga xabar berilgan. Yuzaga kelgan yong‘in 5 ta yong‘in-qutqaruv ekipaji tomonidan soat 15:20 da o‘chirilgan. Jabrlanganlar yo‘q. Yong‘in paytida omborda mineral o‘g‘itlar mavjud bo‘lmagan.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, “Farg‘onaazot” AJ omborining 6 ta boksida yong‘in sodir bo‘lgan. Yong‘in paytida omborda ko‘mir mahsuloti bo‘lgan. Hozirda, mazkur holat va yong‘inning kelib chiqish sabablariga aniqlik kiritilmoqda. Batafsil ma’lumotlar taqdim etiladi.

Ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tamiz, 2023-yilning yanvar oyida, tegishli xususiylashtirish dasturi asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi “Farg‘onaazot” AJ ustav kapitalidagi 99,02 foiz davlat aksiyalar paketini xususiylashtirish bo‘yicha “Indorama Corporation Pte. Ltd” (Singapur) kompaniyasi bilan kelishuvga erishgan va hozirgi kunda “Farg‘onaazot” AJ boshqaruvi Singapurning Indorama kompaniyasiga qarashlidir.